

BOLALARNI SAVODXONLIKKA O‘RGATISH MASHG‘ULOTIDA TURLI XIL TA‘LIMY O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani 7-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Usanova Dilafruz Mirzaqulovna

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada bolalarni savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotida turli xil ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish, og‘zaki nutqini o‘stirishda erkin hikoya qilish, savod o‘rgatish darslarini to‘g‘ri tashkil qilish va bolani maktabda muvaffaqiyatli ta‘lim olishga tayyorlash haqida to‘liq bayon etilgan.

KALIT SO‘ZLAR: savodxonlik, ta‘limiy o‘yinlar, savod o‘rgatish, didaktik o‘yin, fizialogik jihat.

KIRISH: Savod o‘rgatish vaqtida o‘qish va yozish harakatini aniq bir maqsadga mos tarzda bajara olish o‘qish va yozish malakasi deb ataladi. Mana shu malaka bilimni talab etadi, chunki bu ko‘nikmalarsiz shakllanmaydi. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari bo‘ylab qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya‘ni yozish mobaynida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi.

ASOSIY QISM: Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta‘lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun belgilangan shart-sharoitlarni yaratish lozim. Bola nutqining takomillashishi ko‘p tomondan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘shishiga. Ahloqiy sifatlariga o‘quv dasturini o‘zlashtirishida me‘yorli bajarilishini ta‘minlashshiga, qo‘llanmalarining monandligiga uzviy bog‘liqdir. Mazkur muammolar maktabgacha ta‘limda o‘z yechimi ifodasini topishi va

o‘z ona tilida to‘g‘ri va ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi juda muhimdir. Bolalarning aqliy jarayonini takomillashtirish uchun ularning nutqini o‘stirish lozim. Bola har bir so‘z mazmunini anglay olishi uni o‘z nutqida bemolol ifodalashga muvofiq bo‘lishi zarur. Savodga o‘rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy vaqtni o‘z ichiga qamrab olib, ushbu bosqichda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta’lim-tarbiya berish sifatiga bog‘aliq. Shu bois Vatani, halqini sevadigan, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni ettirish davlatning ta’lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir shuning bilan birga ta’lim tizimidagi tub islohotlar yordamida bola ma’naviy kamolotini ta’minlash mazkur yo‘nalishning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, bu haqda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalaridan biri ekanligi ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’lim umuman olganda, uzliksiz ta’limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o‘qish uchun tayyor bo‘lgan sog‘lom va to‘laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko‘zda tutadi Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z g‘oyasini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi. Og‘zaki nutqini o‘stirish borasida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri rivojlantirishga: nutqning morfologik va sintaksis taraflarini rivojlantirishni davom ettirish: sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda hamma so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini rivojlantirish, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, erkin hikoya qilishga diqqat-e’tibor qaratiladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda erkin hikoya qilishga o‘rgatish muhim o‘rin tutadi, bolalalarni o‘z

hayotlarida uchragan hodisalar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi yordamida hikoyalar tashkil qilishga o'rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog'langan, ma'lum izchillikda, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi zarur. O'quvchini savod o'rgatish mobaynida elementar "o'qish va yozishga" o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga intilishlari uchun talab bo'lishi, o'z g'oyasini og'zaki yoki yozma ifodalay olishlari uchun zaruriyat va ehtiyojni paydo qiluvchi sharoit yaratilishi kerak. Ta'limiy o'yinlardan foydalanish, bo'sh o'quvchilarni ham bir oz bo'lsada, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda bo'layotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilarni faollashtirish uchun dars vaqtida foydalaniladigan o'yinlarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tashkil qilish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli chuqur ko'rib chiqilishi zarur. Demak, o'qituvchi har bir foydalanadigan ta'limiy o'yinlarni foydalanganda nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish, vaqtida savod o'rgatish darslarini to'g'ri tashkil qilishi, ya'ni ushbu savod o'rgatish darslarida ta'limiy o'yinlarda foydalanish muhim ahamiyatga kasb etadi;

1. Savod o'rgatish mashg'ulotlarining ta'limiy o'yinlarni tashkil qilishga e'tibor qaratib, uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish.

2. O'quvchilarni yosh va fizialogik tomonlariga e'tibor berish.

3. Ularda mustaqil faoliyatni takomillashtirish ishlarini keng qo'llash.

4. O'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor qaratish.

5. Alifbo va unga qo'shimcha materillardan samarali foydalanish.

XULOSA:

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joziki, o'quvchilar savodli va to'g'ri yozish oqali e'tiborli, irodali, tartibli bo'lishga o'rganib boradilar. Bu esa jamiyatimizda

rivojlanayotgan har bir shaxsga tegishli bo'lgan fazilatlardan biridir. Unda asosan o'quvchilarni savodli va husnixat asosida yozishga o'rgatish masalalari, darslarni interaktiv usullar hamda ta'limiy o'yinlardan foydalanishni tashkil qilish masalalariga muhim e'tibor qaratildi. Ilmiy metodik adabiyotlar, tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlili hamda boshlang'ich ta'lim jarayonini kuzatishlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R., G'ulomov M., Inoyatova M. Savod o'rgatish darslari.- Toshkent, "Tafakkur", 2012.

2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi//Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.

3. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi.- Toshkent, "O'qituvchi", 1996.

4. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

5. Safarova R., G'ulomov M., Inoyatova M., Salayeva M. Savod o'rgatish darslari.- Toshkent, "Ma'naviyat", 2003.